

## OYBEK ASARLARIDA AYOLLARNING GENDER TENGLIGI HAQIDA



<https://doi.org/10.5281/zenodo.15053270>

**Ibragimova Mohinurxon Davronbek qizi**

Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti,  
“Dizayn va texnologiya” fakulteti, “Moda va dizayn” kafedrasи,  
“Kostyum dizayni” yo‘nalishi 25r-24-gurux talabasi

**Ilmiy rahbar: Masharipova Gularam Kamilovna**

Alfraganus university professori, falsafa fanlari doktori

### ANNOTATSIYA

*Maqolada Oybekning “Gulnor” hikoyasidagi Gulnor obrazi orqali ayollarga bo‘lgan munosabat, o’sha davrning tarixiy shart-sharoitlari va Oybek orzusidagi ayollarning erkaklar bilan tengligi, ya’ni gender tenglik haqida ilmiy jihatdan asoslab berildi. Islom ayollarning hurmat-ehtiromini o‘rniga qo‘yib, ayollik latofatlarini saqlab qolishlari uchun, ayollik vazifalarini to‘liq ado etish orqali o‘z jamiyatlariga, vatanlariga kerakli xizmatni ado etishlari uchun barcha sharoitni yaratish zarurligi izohlab berildi.*

**Kalit so‘zlar:** ayollar, gender tenglik, gendershunoslik muammolari, pedagogik madaniyat, ro‘mol, atlas ko‘ylak, sarpinka ro‘mol.

### АННОТАЦИЯ

*В статье научно обосновано отношение к женщинам, исторические условия того времени и мечта Айбека о равенстве женщин с мужчинами, то есть о гендерном равенстве, через образ Гульнар в повести Айбека «Гульнор». Было разъяснено, что ислам должен создать все условия для того, чтобы женщины сохраняли свое достоинство и женское очарование, а также оказывали необходимые услуги своему обществу, родине и полностью выполняя свои женские обязанности.*

**Ключевые слова:** женщины, гендерное равенство, проблемы гендерных исследований, педагогическая культура, платок, атласное платье, платок-сарпинка.

### ABSTRACT

*The article scientifically substantiates the attitude towards women, the historical conditions of that time and Aibek’s dream of equality of women with men, that is, gender equality, through the image of Gulnar in Aibek’s story "Gulnor". It was explained that Islam should create all the conditions for women to maintain their*

*dignity and feminine charm, as well as provide the necessary services to their society, homeland and fully fulfill their female duties.*

**Keywords:** women, gender equality, problems of gender studies, pedagogical culture, headscarf, satin dress, sarpinka headscarf.

## KIRISH

Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybekning boy ilmiy merosi ko‘pgina tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Jumladan, Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek va uning tarjima asarlari [1, 58-64-bb.], Oybek uy-muzeyining yoshlari tarbiyasidagi ahamiyati [2], Oybek ijodiyning ma’naviy-ma’rifiy ahamiyati [3], Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybekning mukammal asarlar to‘plami [4-8], umuman olganda Oybek ijodini o‘rganish yoshlari uchun inrat maktani ekanligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan [9-10].

Gender yondashuvi erkaklar va ayollar o‘rtasidagi fiziologik va psixologik farqlarni inkor etmaydi va o‘qituvchilarga jamiyatdagi, madaniyatdagi va kasbiy guruhdagi o‘z mavqeini talqin qilish va o‘z-o‘zini aniqlash asosida pedagogik madaniyatning qadriyat ma’nolarini shakllantirishga imkon beradi. “Aslida tarixga nazar tashlasak SHarqda ayollar huquqi va burchlari qat’iy belgilangan. Gendir tushunchasining amaldagi ahamiyati mavjud. Islom erkaklarga mos bo‘lgan og‘ir ishlarni ayollarga farz qilmagan, lekin ayolarga xos ba’zi ishlarni erkaklarga xos ishlar ila tenglashtirib, ular bilan teng ajr olishni joriy qilgan. Misol uchun, ayollarning tug‘ishdagi qiyonoqlarini erkaklarning dushmanga qarshi jihodiga tenglashtirgan. Bu ma’nolar o‘z haq-huquqini talab qilib chiqqan muslima ayollar sharofati ila Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallam tomonlaridan bayon qilingan” [11].

So‘nggi paytlarda erkak va ayol rollari keskin o‘zgarishlarga duch keldi. Texnika taraqqiyoti, ayollarning mehnatda teng ishtirok etishi va ta’lim olishdan teng foydalanish an’anaviy “gender mehnat taqsimoti” tushunchasini o‘zgartirdi. Ma’lum bo‘lishicha, erkak va ayol bir xil ishni bajarishi mumkin. An’anaviy gender mehnat taqsimoti kamroq qattiq va o‘zgarmas bo‘lib qoldi, erkaklik va ayollikning madaniy stereotiplari o‘zgardi, oilaviy munosabatlar o‘zgardi. SHu bois gender bilan bog‘liq u yoki bu savollar jamiyatda katta rezonansga sabab bo‘ldi. Fan ham bu savollarni chetlab o‘tmadi. Pedagogikada gendershunoslikning bir qancha sohalari ham vujudga kelgan. Ushbu masala bo‘yicha psixologik-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilib, biz quyidagi yo‘nalishlarni aniqlashga muvaffaq bo‘ldik: ta’limda gender sotsializatsiyasi; ta’lim olishda gender farqlari; gender o‘ziga xosligini anglash, gender va ijtimoiy rollarni bilishda ta’lim muassasasining roli; yosh va jinsiy tarbiyaning pedagogik jihatlari; qizlar va o‘g‘il bolalarning rivojlanish

xususiyatlardan kelib chiqqan holda ta'limdagi farqlar; maktab dasturlari, kurslari va darsliklarining gender tahlili; gender stereotiplarining tarbiya va ta'limga ta'siri; universitetlarda o'qitishning gender jihatlari; o'qituvchilarning pedagogik faoliyati va uning samaradorligi uchun shart-sharoitlarni yaxshilash, erkak va ayol o'qituvchining kasbiy faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini o'rghanish [12]. Biroq, pedagogikada gendershunoslik muammolariga qiziqish ortib borayotganini qayd etib, biz hozirgi vaqtida o'qituvchining pedagogik madaniyatining gender xususiyatlarini aniqlash muammosi hali tadqiqot ob'ekti bo'limganligini aniqladik. Hozirgacha pedagogik madaniyatning barcha modellari jinssiz va yoshsiz edi. Ko'pgina tadqiqotchilar pedagogik mehnatni baholashning umumiyligi tamoyillarini belgilashda o'qituvchining individual xususiyatlarini hisobga olish kerakligini ta'kidlaydilar: uning jinsi, yoshi va boshqalar.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ushbu maqolada Muso Toshmuhammad o'g'li Oybekning "Gulnor" hikoyasida ayollarga bo'lgan munosabat va ularning hayotda o'z o'rniga ega bo'lishlarida har bir ayolning o'z o'rni muhim ekanligi yoritib berilgan.

Asarning yozilish yili: tadqiqotlarga ko'ra, "Gulnor opa" (ya'ni, «Gulnor hikoyasi») 1930-yilda yaratilgan. Bu davr Oybekning erta nasriy tajribalarining shakllanish bosqichi bo'lib, u o'zining qissalari va qisqa hikoyalarda ijtimoiy hayot, insoniy taqdir va o'sha davrning murakkab ijtimoiy munosabatlarini aks ettira boshlagan.

1930-yillar O'zbekiston va Umumiy Sovet maydonida ijtimoiy hayotda keskin o'zgarishlar, yangi modernizm va inqilobiy ruhning aks etishi bilan tavsiflanadi. Shu davr sharoitida adiblar o'z asarlarida xalqning hayoti, mehnatsevarlik,adolatsizlik va ayni paytdagi o'zgarishlarni badiiy usulda aks ettirishga intilishgan.

Asarning mazmuni: «Gulnor hikoyasi» nomidan ham anglash mumkinki, asarda ayol obrazining, ehtimol, Gulnor ismli qahramonning hayoti, taqdir va ruhiy kechinmalari tasvir etilgan. Oybekning erta qisqa hikoyalari ko'pincha oddiy insonlar hayotidagi murakkablik, azob-uqubat va ichki dunyoni aks ettiradi.

Gulnor: Uzoqdan qaraganda, asarda ayol qahramon sifatida ijtimoiyadolatsizlik, oilaviy va madaniy cheklar, hamda o'ziga xos insoniy kechinmalar orqali aks etadi. U ko'pincha o'sha davrning ayollarini qiyinchiliklari va ularga nisbatan jamiyatning munosabatlarini ifodalovchi timsol sifatida ko'rildi.

Ijtimoiyadolatsizlik va mehnat sharoiti: Asarda qashshoqlik, mehnatkash xalqning kurashi va o'sha davrning ijtimoiy munosabatlari, ayniqsa, ayollarning duch keladigan qiyinchiliklari tasvir etiladi.

An'anaviy vs. zamonaviy qadriyatlar: Hikoya orqali adib o'zbek jamiyatining eski an'analar va yangi, inqilobiy ruh orasidagi ziddiyatlarni, shuningdek, insoniy kechinmalar va orzu-umidlarni aks ettirishga intiladi.

Emotsional va psixologik tahlil: Oybekning keyingi asarlarida ham kuzatiladigan nozik psixologik tahlil uslubi, bu hikoyada ham o'z ifodasini topgan – Gulnorning ichki dunyosi, hayotiy qarama-qarshiliklar va insoniy kechinmalari batafsil tasvirlanadi.

Nashriy tarixi: tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Oybekning erta davrdagi qisqa hikoyalari, jumladan, «Gulnor opa» (1930 yil) uzoq vaqt davomida keng jamoatchilikka e'lon qilinmagan. Keyinchalik ularni to'plam shaklida chop etish orqali adib o'zining nasriy tajribasining asosiy bosqichlarini yoritishga muvaffaq bo'lган.

«Gulnor hikoyasi» Oybekning erta nasriy tajribalarini aks ettiradi. Ushbu asar orqali u keyinchalik rivojlangan realizm va psixologik tahlil uslublarining poydevorini yaratadi. Asarda o'sha davrning ijtimoiy tengsizliklari, ayniqsa, ayollar hayotidagi murakkabliklar va ularning ichki dunyosini aks ettirishga intilish namoyon bo'ladi.

Tadqiqotchilar ushbu hikoyani, garchi kichikroq hajmdagi asar bo'lsa-da, Oybek ijodining keyingi bosqichlari uchun muhim eksperimental va tanqidiy poydevor deb baholaydilar.

«Gulnor hikoyasi» Oybekning nasriy uslubining shakllanishida muhim bosqich sifatida qaraladi. U orqali adib o'zbek adabiyotida realizm, insoniy kechinmalar va ijtimoiy masalalarni yangi badiiy vositalar bilan ifodalashga intilgan. Garchi keyinchalik u yanada keng ko'lamlı epik asarlar – masalan, «Qutlug' qon», «Navoiy» kabi dostonlar bilan mashhur bo'lsa-da, «Gulnor hikoyasi» uning erta davrdagi ijodiy tajribalarini aks ettiruvchi muhim asar sifatida qadr topadi. Ushbu hikoya o'zining psixologik nozikligi va ijtimoiy munosabatlarga bag'ishlangan mazmuni bilan o'quvchilar va adabiyotshunoslar orasida qiziqish uyg'otadi.

Muso Toshmuhammad o'g'li Oybekning «Gulnor hikoyasi» (yoki "Gulnor opa") 1930-yilda yaratilgan erta nasriy asarlaridan bo'lib, u o'zbek adabiyotining ijtimoiy-realistik yo'naliishiga o'z hissasini qo'shgan. Asar orqali adib ayol qahramonining ichki kechinmalarini, ijtimoiyadolatsizlik va zamonaviylikka intilish kabi mavzularni nozik va chuqur tahlil qilib, keyinchalik rivojlangan realizm uslubining poydevorini yaratadi. Ushbu hikoya Oybekning butun ijodiy faoliyatini, uning insoniy kechinmalar va ijtimoiy masalalarga bo'lgan sezgir yondashuvini yanada chuqurroq anglashga imkon beradi.

Muso Toshmuhammad o'g'li Oybekning «Gulnor opa» hikoyasi o'zbek adabiyotining yorqin namunasidir. Hikoyada Shokir aka ismli boyning bog'chasiga kirish qanchalik qo'rqinchli ekani tasvirlanadi. Bir yarim tanobcha joyni egallagan bog'cha baland devorlar bilan o'ralgan bo'lib, ichida o'rik, shaftoli kabi mevali daraxtlar o'sadi.

Ko'chalarni changitib to'p o'ynardik. Men yangi sotib olgan qora to'pimni tashlaganda, Vali ustalik bilan bir urgan edi, to'p g'iz etib yuqorilandi-da, qaytib ko'chaga tushmadi. O'ynovchilar turgan joylarida qotib qolishdi:

– Ah, qanday yaxshi to'p edi, Shokir akaning bog'chasiga tushdi-ya. Essizgina...

Fattoh kattalardek qo'lini orqasiga tashlab:

– Tag'in tushib o'tirma, bilasan-ku SHokir akaning fe'lini, xuddi oyog'ingni sindiradi, – deb nasihat qilganday bo'ldi. Bolalar birin-sirin tarqalib ketishgan edi. Men yolg'iz qolgandim, o'ynab to'ymagan to'pimning alami ichimda har minut sayin zo'rayib borardi. Faqat SHokir akaning bog'chasiga kirish juda qo'rqinchli edi. Bir yarim tanobcha joyni egallagan bog'cha baland devorlar ila o'ralgan, ichida o'rik, shaftoli, gilos, ko'ksulton va shunga o'xshashlar. Bu mevalardan biron donasini chet kishi ko'rmas va kimga sotiladirganligini-da hech kim bilmasdi. Hatto, "anjir bilan anor gulini to'kib, ko'zga ilinadigan bo'lganda SHokir aka sanab qo'yadi", – deb gaplashardi mahalladagilar. Mening qora to'pim, shubhasiz, mana shu bog'chada. Faqat, qanday qilib olish mumkin? SHunday kishining bog'chasiga to'p qidirib tushish hazil gap emasdi. Men ko'p o'yladim, axir tushishga qaror qilib, qulay bir joy axtara boshladim. Jin ko'chadan bog'chaga kirib ketadirgan ariqning onbori bir oz katta bo'lib qolgan ekan. Ishtonimni tizzamga qadar ko'tarib, onborga bosh tiqdim, o'tish qiyin bo'ldi, devorni qo'lim ila uvalab teshikni katta qildim-da, sekingina o'tdim. O't orasiga biqinib, har yoqqa qarab oldim, bog'cha jimjit...

Rang-barang kiyimlarga belangan kelinchak gullarning ustida, jimjima qafasdonli savadonlarni va bog'chani poylagan kabi haryoqqa tez-tez qarab qo'yardim.

Butun diqqatimni ko'zimga to'plab qidirishga tutindim, to'pimni onboardan 20-30 qadam narida, o't orasidan topdim, ko'nglim tinchidi. Qaytishga hozirlanib, atrofga bir qaragan edim, devorga chirmashib o'sgan tokning tagida SHokir akaning qizi Gulnor opa ila Turdi sartaroshning o'g'li Asadga ko'zim tushdi. Darrov o't orasiga cho'zildim. "SHokir aka yo'q ekan, bular bu erda" dedim-da, yota berdim.

Gulnor opaning ustida bir oz to'zishga boshlagan atlas ko'ylak, sarpinka ro'mol elkasida. To'la oppoq bilagi Asadning bo'yniga o'ralgan, dam Asadning chiroyli yuziga qaraydi, dam boshini yigitning keng, kuchli ko'kragiga qo'yadi. Asad bir qo'li

ila Gulnor opaning beliga tushgan qora sochlarini silar, yuzlaridan uzilmagan gulni hidlagan kabi sekin-sekin o‘par va nimalarnidir so‘zlardi. Menga anglashilmagan bir sirning og‘irligi ko‘kragimni siqar, yashil o‘tlar orasiga ko‘milgan boshimda shu vaqtgacha yashirinib yotgan fikrlar uchqunlanar edi.

Butun diqqatimni ko‘zimga to‘plab qidirishga tutindim, to‘pimni onboardan 20-30 qadam narida, o‘t orasidan topdim, ko‘nglim tinchidi. Qaytishga hozirlanib, atrofga bir qaragan edim, devorga chirmashib o‘sgan tokning tagida SHokir akaning qizi Gulnor opa ila Turdi sartaroshning o‘g‘li Asadga ko‘zim tushdi. Darrov o‘t orasiga cho‘zildim. “SHokir aka yo‘q ekan, bular bu erda” dedim-da, yota berdim.

Gulnor opaning ustida bir oz to‘zishga boshlagan atlas ko‘ylak, sarpinka ro‘mol elkasida. To‘la oppoq bilagi Asadning bo‘yniga o‘ralgan, dam Asadning chiroyli yuziga qaraydi, dam boshini yigitning keng, kuchli ko‘kragiga qo‘yadi. Asad bir qo‘li ila Gulnor opaning beliga tushgan qora sochlarini silar, yuzlaridan uzilmagan gulni hidlagan kabi sekin-sekin o‘par va nimalarnidir so‘zlardi.

Menga anglashilmagan bir sirning og‘irligi ko‘kragimni siqar, yashil o‘tlar orasiga ko‘milgan boshimda shu vaqtgacha yashirinib yotgan fikrlar uchqunlanar edi.

Ko‘chadan o‘tgan har bir qizning paranjisidan tortish, hatto, hassaga suyalgan kampirlarning bandagini boshiga ilishdan zavq oluvchi to‘polonchi ko‘nglim bunday fursatdan foydalanmayin jimgina chiqib ketishga maslahat qilmasdi. Ularni bir cho‘chitish lozimda. Bitta-bitta emaklab onborga yaqinlashdim-da, “Gulnor opani bilib oldim” deya qichqirishim ila Asad bir nimadan qattiq hurkib, arqonni uzgan ot kabi o‘zini bir yoqqa otdi, qo‘li qaltirar, kuch yo‘q. Baland devorga sakraydi, yiqilib tushadi, yana turib butun kuchi ila irg‘iydi, yana yiqladi.

Gulnor bir zumda bog‘chaning ikkinchi yog‘iga o‘tgan bo‘lsa-da, qo‘rqqanidan bog‘cha eshigining zanjirini tushirolmasdan tipirchilardi. Bu ishim meni shu qadar sevintirdikim, ombordan qanday chiqib ketganimni sezmay qoldim.

Kechqurun sutga chiqqanimda Xayri xola sigir sog‘ishga hozirlanib turgan ekan. Qo‘limdan bir mirili chaqani oldida:

– Badaljon, xolasi o‘rgilsin. Gulnor bilan kirib maydondan o‘tin olib chiqqin, keyin bir kosa limmo-lim qilib sut beraman.

– Gulnor, Gulnor, Badal bilan birga kirib quruq-qurug‘ini olib chiqqa qol, – deya molxonada turib qiziga buyurdi.

Gulnor opa uydan chiqdi. “Oposi, kelaqol”, deya meni boshlab ketdi. Menga tikilib qarolmasdi, maydonga kirganda atlas ko‘ylagining ikki engini shimardi, kumush bilakuzuklarini ham yuqoriroq surib qo‘ydi-da, titrak bir tovush ila:

– Badal, tag‘in haligini birovga ayta ko‘rma, – dedi.

– Nimani, Gulnor opa? – so‘radim.

- Haligi... Man tovushingdan bildim. Nimaga boqqa tushgan eding?
- To‘pimga... – Men ko‘ylagimning engini tishlab hech narsa bilmagan kishidek turar edim.
- SHundoq qo‘rqib ketdim-ki... qo‘l-oyog‘im bo‘shashib yiqilayozdim, – dedi Gulnor opa.

Yirik, qora ko‘zlaridan marvarid tomchilar uning chiroyli yuziga yumalab tusha boshlamish, uzun kipriklari namlanmishdi.

- Yaxshiki, uydagilar eshitmagan. Xayri xolang meni xuddi o‘ldiradi-ya...

Quyoshning so‘ng nurlari baland daraxtlarning uchlarida porlardi. Bog‘chada qushlar shoxdan-shoxga o‘tib, kechani o‘tkizish uchun o‘ng‘ay joy qidirardi. Qarshimda yig‘lab va yalinib turgan Gulnor opa qalbimga ham g‘urur, ham alam solardi, Gulnor opani qanday qilib ishontirishni bilmas edim.

- Yo‘q, endi hech bilib oldim demayman, hech kimga aytmayman, hechkimga, yig‘lamang. Gulnor opa, yig‘lamang, – dedim. Tovushimda yalinish, o‘tinish bor edi.

Gulnor opa birdan sevinib ketdi, uzun, nozik barmoqlari ila yuzlarimni siladi: “Oposi-ya, yaxshi ukam o‘zi”, deya erkaladi. Nimchasining cho‘ntagidan ikki chaqim, usti bir oz kirlangan qand olib berdi-da, ariq bo‘yiga kelib ko‘zlarini yuvdi.

Maydondan o‘tinlarni tashib bo‘lgach, Xayri xoladan “limmo-lim” sutni olib ko‘chaga chiqdim. “Nega muncha yalinadi, nega Xayri xola o‘ldiradi”, deya o‘ylab ketarkan, oqshom menga Gulnor opaning baxti, erki kabi bo‘sh va sirli ko‘ringandi”.

### XULOSA

Ushbu hikoya o‘sha davrning sodda insonlari, ularning mas’uliyatlari va o‘sha davr haqida to‘liq tasavvur beradi. Hikoyadan insonlarning bir-birlariga o‘zaro munosabatlari, yoshlardagi tarbiyasi va bir-biriga bo‘lgan ishonch haqida bilib olish mumkin.

### ADABIYOTLAR

1. Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek va uning tarjima asarlari// “Ilm-fan muammolari tadqiqotchilar talqinida” mavzusidagi 17-sonli respublika ilmiy konferensiysi materiallari to‘plami 30-sentyabr, 2023-yil 1-qism. - 58-64 bb.
2. Masharipova G.K., Xo‘jamuratov S. Visiting The House-Museum Of Aybek And Its Unique Educational Significance. International Scientific Journal Science Shine Volume 2. Issue 1. 31. 03. 2023.
3. Oybek ijodiyning ma’naviy-ma’rifiy ahamiyati. Ilmiy konferensiya ma’ruzalari tezislari. – Toshkent, 2005.
4. Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek. Mukammal asarlar to‘plami. 19-jildlik. 1-jild. She’rlar (1922-1935). – Toshkent, Fan, 1975.

5. Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek. Mukammal asarlar to‘plami. 19-jildlik. 4-jild. Dostonlar. – Toshkent, Fan, 1976.
6. Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek. Mukammal asarlar to‘plami. 19-jildlik. 6-jild. Navoiy. Roman. – Toshkent, Fan, 1976.
7. Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek. Mukammal asarlar to‘plami. 19-jildlik. 12-jild. Hikoyalar, ocherklar, kundaliklar, pamfletlar, nutqlar. – Toshkent, Fan, 1978.
8. Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek. Mukammal asarlar to‘plami. 20-jildlik. Rus tilida yozilgan asarlar. Maqolalar, nutqlar, taqrizlar. – Toshkent, Fan, 1985.
9. Masharipova G.K. Oybek's House-Museum Is An Educational Center For Young People. Web of scientist: international scientifist research journal. Indoneziya, 2021. - Pp.4-10.
10. Maharianova G.K., A’zamjonova S. Interesting Events From The Life Of Famous Scientist Oybek. International Consortium on Academic, Trends on Education and Science Hosted from London. - April 3rd -4th 2021. - PP. 15-17.
11. Madaminova U. Yangi O‘zbekiston - yangi imkoniyatlar poydevori. // «Oriental Art and Culture» Scientific-Methodical Journal - Issue 6 / 2021. – B. 219.
12. Уэст Кендес и Зиммерман Дин. Создание гендера (Doin gender) / Гендерные тетради. - Вып. I. РАН. СПб. 1997. С. 94-120.